NAJMIDDIN ZOHIDIYNING ILMIY SHAKLLANISHIDA USTOZLARINING O‘RNI

Najimatdinov Karamatdin
Qoraqalpoq davlat universiteti
talibiilim454@gmail.com

Annotatsiya. *Tezisda hanafiy tabaqot va tarojim manbalari asosida Najmiddin Zohidiyning ustozlari fanlar kesimida (fiqh, kalom, arab tili, qiroat, hadis) tizimlashtirilgan. Manbalar qiyosiy tahlil qilinib, allomaning ilmiy shakllanishida Xorazm va Movarounnahr hanafiy maktablari muhim rol o‘ynagani asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Najmiddin Zohidiy, ustozlar, hanafiylik, tabaqot, tarojim, Xorazm, Movarounnahr, manbashunoslik.*

Аннотация. *В тезисах на основе ханафитских источников жанра табакат и тараджим систематизированы научные наставники Наджм ад-Дина аз-Захиди по областям знаний (фикх, калам, арабский язык, кираат, хадис). Проведён сравнительный анализ источников, показывающий важную роль ханафитских школ Хорезма и Мавераннахра в его научном становлении.*

Ключевые слова: *Наджм ад-Дин аз-Захиди, наставники, ханафизм, табакат, тараджим, Хорезм, Мавераннахр, источниковедение.*

Abstract. *The thesis systematizes the scholarly mentors of Najm al-Dīn al-Zahidi by discipline (fiqh, kalam, Arabic language, qiraʾat, ḥadith), drawing on hanafi tabaqat and tarajim sources. A comparative analysis of these sources demonstrates the decisive role of the hanafi schools of Khwarazm and Transoxiana in his scholarly formation.*

Keywords: *Najm al-Dīn al-Zāhidī, mentors, Ḥanafism, tabaqat, tarajim, Khwarazm, Transoxiana, source studies.*

KIRISH

XII–XIII asrlarda Xorazm musulmon Sharqining yirik ilm markazlaridan biri bo‘lib, bu yerda fiqh, kalom, tafsir, hadis, qiroat va arab filologiyasi sohalarida ko‘plab e’tiborli olimlar yetishib chiqqan. Aynan shu ilmiy muhitda kamolga yetgan siymolardan biri hanafiy mazhabining yirik faqihi Abu Rajo Najmiddin Muxtor ibn Mahmud ibn Muhammad az-Zohidiy al-Xorazmiy al-G‘azminiy (vaf. 658/1260 y.)

bo‘lib, uning “Qunyat al-munya”, “al-Mujtabo” hamda “ar-Risolatun Nosiriyya” singari asarlari fiqh va aqida ilmi tarixida muhim o‘rin egallaydi.

Zohidiy shaxsi va merosi xususida bir qator ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, allomani kim tarbiyalagani, u qaysi ilmiy maktablarga mansub bo‘lgani va qanday bilim zanjirini bosib o‘tgani masalasi alohida tadqiqot predmeti sifatida yetarlicha ishlanmagan. Bu ma’lumotlar tabaqot va tarojim adabiyotlarida tarqoq holda uchraydi. Ushbu tezisning vazifasi – hanafiy tabaqot va tarojim adabiyoti, bio-bibliografik manbalar hamda so‘nggi yillardagi ilmiy ishlar asosida Najmiddin Zohidiyning ustozlarini fanlar kesimida (fiqh, kalom, arab tili, qiroat, hadis) tartibga solish va uning ilmiy kamolotida Xorazm hamda Movarounnahr hanafiylik maktablari qanday rol o‘ynaganini ko‘rsatishdan iborat.

ASOSIY QISM

Olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki, manbalarning aksariyatida Zohidiyning ustozlari xususida umumiy jihatdan bir-biriga yaqin ma’lumot beriladi, biroq ba’zi tafsilotlarda, ayniqsa silsila tartibi va biografik detallarda tafovutlar uchraydi. Bunda Laknaviy eng batafsil ma’lumot bergan muallif sifatida ajralib turadi, Qurashiy va Humaydiy esa qisqagina tarjimai hol berish bilan cheklanadi, Toshko‘prizoda va Hoji Xalifa esa ko‘proq Zohidiyning asarlariga urg‘u beradi.

Zohidiyning fiqh bo‘yicha bosh ustozi sifatida deyarli barcha manbalarda Burhonul a’imma Muhammad ibn Abdulkarim at-Turkistoniy al-Xorazmiy tilga olinadi. Laknaviy bu o‘rinda alohida to‘xtalib, uning ilmiy zanjirini ham ko‘rsatib o‘tadi: Turkistoniy – Alouddin Kosoniydan, Kosoniy – Najmiddin Umar Nasafiydan, Nasafiy esa o‘z navbatida Abul Yusr Pazdaviydan ta’lim olgan [1]. Demak, Zohidiyning fiqhiy ildizlari, aslida, Movarounnahr hanafiylik maktabining eng nufuzli namoyandalariga borib taqaladi; qolgan manbalarda esa bu zanjir qisqartirilib, faqat Turkistoniy nomi bilan cheklanadi.

Bundan tashqari, Alouddin Sadid ibn Muhammad al-Xayyotiy nomi ham deyarli barcha tabaqot asarlarida qayd etiladi – bu esa Zohidiyning fiqhni yagona ustozdan emas, balki Xorazm maktabining bir nechta yirik faqihidan o‘zlashtirganidan dalolat beradi. Bulardan tashqari Najmiddin Abul Maoliy al-Hafsiy, Ruknul a’imma Abdulkarim al-Madiniy as-Sabbog‘iy, Qozi Faxriddin Badi’ al-Kuzabniy[4], Najmiddin Qosim ibn Muhammad al-Hayyoz[7], Sirojiddin Muhammad al-Kuzabniy va Ruknuddin al-Valjoniy[8] kabi olimlar ham uning fiqh ustozlari qatorida zikr etiladi. Bularning ko‘pchiligi haqida manbalarda juda qisqa ma’lumot bo‘lsa-da, Zohidiyning o‘z asarlaridagi iqtiboslar ularning ta’siri kichik bo‘lmaganini ko‘rsatadi. Alohida ta’kidlash joizki, Ruknul a’imma as-Sabbog‘iyni Zohidiy “mujtahidlarning so‘nggi vakili” deb ataydi, “al-Mujtabo”da esa uni

“qaynotam” deb tilga oladi. Bu esa ular orasida nafaqat ilmiy, balki qarindoshlik aloqasi ham bo‘lganini anglatadi.

Kalom sohasida asosiy ustoz sifatida deyarli barcha manbalarda bir xil nom qayd etiladi – Sirojiddin Yusuf ibn Abu Bakr as-Sakkokiy al-Xorazmiy. Manbalar o‘rtasidagi bu birlik ma’lumotning tarixiy jihatdan ishonchli ekanini kuchaytiradi. Ulanbek Kalmurza uulu ham o‘z monografiyasida Zohidiyning kalom, arab tili va balog‘atni Sakkokiy hamda Nosiruddin al-Mutarriziy qo‘lida puxta egallaganini alohida ta’kidlaydi [5]. Sakkokiy nafaqat mashhur til va balog‘at nazariyotchisi, balki hanafiy faqihi sifatida ham tanilgan bo‘lib, uning “Miftoh al-ulum” asari islom ilmlari tarixida munosib o‘rin tutadi. Demak, Zohidiyning aynan shu allomadan saboq olgani uning kalom sohasidagi dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Manbalarga ko‘ra, Zohidiy arab tili, lug‘at va balog‘at ilmlarini ham chuqur o‘zlashtirgan. Bu yo‘nalishda Sharoful Afozil Ja’miniy [3], Sirojiddin as-Sakkokiy hamda Burhoniddin Nosir ibn Abdussayyid al-Mutarriziy asosiy ustozlar sifatida ko‘rsatiladi[1]. Ulardan Mutarriziy alohida diqqatga sazovor: u Mahmud Zamaxshariy maktabining davomchisi, “al-Mug‘rib fi tartib al-mu’rib” lug‘atining muallifi sifatida tanilgan. Ayrim manbalarda uni bevosita Zamaxshariyning shogirdi deb ko‘rsatish uchraydi [1], ammo bu ma’lumot xronologik jihatdan bahsli: Zamaxshariy 538/1144 yilda vafot etgan bo‘lsa, Mutarriziy aynan o‘sha yili tug‘ilgan deb hisoblanadi. Shu sababli bu yerdagi “shogird” degan ta’rifni to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki Zamaxshariy an’anasining davomchisi ma’nosida tushunish to‘g‘riroq bo‘ladi. Bu esa manbalarga tanqidiy yondashish zarurligini yana bir bor ko‘rsatadi.

Qiroat ilmiga oid ma’lumotlarda manbalar o‘rtasida deyarli to‘liq moslik kuzatiladi: Zohidiy bu ilmni Rashiduddin Yusuf ibn Muhammad al-Qandiy al-Xorazmiydan (ayrim nusxalarda “al-Qaydiy”) o‘rgangan [2]. Laknaviy uni Xorazm qiroat maktabining nufuzli vakili sifatida tasvirlaydi [1].

Hadis sohasidagi ustozlari bo‘yicha manbalarda unchalik ko‘p ma’lumot berilmaydi. Biroq Zahabiy “Tarix al-Islom”da Zohidiy hadis ilmini mashhur mutasavvif Najmiddin Kubro – Abul Janob Ahmad ibn Umar al-Xivaqiydan olganini qayd etadi [6]. Bu xabar Zohidiy faoliyati faqat fiqh va kalom bilan chegaralanmay, hadis hamda tasavvuf muhiti bilan ham aloqador bo‘lganini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, o‘tkazilgan qiyosiy tahlil Najmiddin Zohidiyning ta’limi keng qamrovli bo‘lganini, u fiqh, kalom, arab tili, qiroat va hadis ilmlarini davrining yetakchi olimlaridan o‘zlashtirganini ko‘rsatadi. Aynan mana shu ko‘p qirrali ilmiy

tayyorgarlik uning keyinchalik yirik faqih va mutakallim sifatida tanilishiga zamin yaratgan.

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari hanafiy tabaqot va tarojim adabiyotida Najmiddin Zohidiyning ustozlariga oid ma’lumotlar umumiy mazmunda bir-biriga mos kelsa-da, tafsilot darajasida va ilmiy yo‘nalishlar kesimida ma’lum farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Manbalarni qiyoslash orqali Zohidiyning fiqh, usul al-fiqh, kalom, arab tili, qiroat va hadis ilmlarini o‘z zamonining nufuzli allomalaridan o‘rganganligi, bunda esa Xorazm va Movarounnahr hanafiy maktablarining hal qiluvchi rol o‘ynagani aniqlandi.

Tadqiqot davomida ayrim bio-bibliografik ma’lumotlarni tanqidiy nuqtai nazardan qayta ko‘rib chiqish zarurati ham yuzaga keldi. Xususan, Nosiruddin al-Mutarriziyning Mahmud Zamaxshariyga bevosita shogird sifatida bog‘lanishi mavjud xronologik dalillar bilan to‘liq mos tushmasligi ma’lum bo‘ldi. Bu holat tabaqot-tarojim manbalaridan foydalanishda ularning o‘zaro bog‘liqligi va tarixiy kontekstini hisobga olgan holda tanqidiy yondashuv zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, ustozlarni fanlar bo‘yicha tizimlashtirish Zohidiy ta’lim olgan ilmiy muhitning ko‘p qirraliligini hamda XIII asr Xorazmida fiqh, kalom, qiroat va arab tili ilmlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni yaqqol ko‘rsatib berdi. Ushbu tezisda keltirilgan natijalar Najmiddin Zohidiyning ilmiy merosini yanada chuqurroq o‘rganish, uning ustozlari faoliyatini kengroq tadqiq etish hamda Xorazm hanafiy maktabining rivojlanish bosqichlarini manbashunoslik nuqtai nazaridan yoritishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdulhay al-Laknaviy. Al-Favoid al-bahiya fi tarojim al-hanafiya. – Bayrut: Dor al-Arqam, 1998. – B. 349.

2. Ibn Qutlubug‘o. Tojut-tarojim. – Bag‘dod: Matba’ul Ayniy, 1962. – B. 73.

3. Toshko‘prizoda. Miftah us-saoda va misbah us-siyoda. – Bayrut: Dor ul-kutub al-ilmiya, 1985. – J. 2. – B. 253.

4. Adın N. Ebü’r-Recâ Necmüddîn Muhtar ez-Zâhidî’nin Hayatı ve Eserleri // Usul: İslam Araştırmaları. – İstanbul, 2023. – №40. – B. 174.

5. Kalmurza uulu U. Harizm Hanefi Ekolu: monografiya. – Ankara: Oku Okut Yayınları, 2025. – B. 73.

6. Shamsuddin Muhammad ibn Ahmad az-Zahabiy. Tarix al-Islom. – Bayrut: Dorul kutubil arobiy, 1999. – J. 5. – B. 370–371.

7. Özen Şukru. ez-Zâhidî / Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. – İstanbul: TDV Yayınları, 2013. – J. 44. – B. 81.

8. Mahmud ibn Sulaymon al-Kafaviy. Katoibu a‘lom al-axyor. – Istanbul: Maktabat al-Irshod, 2017. – J. 3. – B. 315.